



O'RTA OSIYODA MILLIY-HUDUDIY CHEGARALANISH O'TKAZILISHI HAMDA O'ZBEKISTON SSR TASHKIL ETILISHI

*Jamoliddinov Bobur Baxodir o'g'li
Namangan akademik litsey Tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ilmiy maqolada sovetlar tomonidan O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazishdan maqsad, uning sabablari hamda oqibatlari haqida va O'zbekiston SSR ning tashkil topishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Stalin, Kreml, Moskva, O'zbekiston SSR, 1924-yil, Fayzulla Xo'jayev, Toshkent

V.I.Leninning tashabbusi va g'oyasi bilan SSSR davlati tashkil topdi. Ta'kidlash lozimki, sobiq sovet hukumatining ko'pdan-ko'p xalqlar va elatlarni birlashtirgan "qudratli imperiya" tuzish yo'lidagi olib borgan siyosati ushbu "imperiya" tarkibida bo'lgan xalqlarning milliy manfaatlariga mutlaqo zid edi.

1923-yilning iyulida RKP (b) markaziy qo'mitasining milliy respublikalar va viloyatlar mas'ul hodimlari bilan bo'lgan kengashida Stalin mamlakat sharqida inqilobiy g'oyalarni Sharqda joriy etishning tayanchi bo'la oladigan tajriba maydonini yaratish bilan bog'liq vazifalar yuzasidan o'z qarashlarini bayon etdi. Bu, avvalo, Turkistonga taalluqli edi. Stalining fikricha, "...Turkiston faqatgina Sharq bilan bog'liq millatlardan tashkil topgani uchun emas, balki o'z jug'rofiy joylashuviga ko'ra, Sharqning qoq yuragiga yorib kirgani uchun ham Sharqni inqiloblashtirish nuqtai nazaridan eng muhim respublikadir... Aynan shuning uchun Turkistonda ommanning madaniy saviyasini ko'tarish, davlat apparatini milliylashtirish va hokazoga e'tiborni qaratish zarur. Biz bu masalani nima qilib bo'lsa ham, kuchimizni ayamasdan, qurbanlardan qo'rmasdan amalga oshirishimiz kerak"¹.

1923-yilning kuzida Stalin g'oyalarini amalga oshirish uchun jadal ish boshlab yuborildi. Moskva O'rta Osiyoda til va boshqa etnik belgilar bo'yicha o'zaro yaqin bo'lgan katta-katga guruhlarini birlashtiradigan davlat tartibi kerak, faqat shundagina bu yerda sovetlashtirish jarayonini muvaffaqiyatli o'tkazish va Sharq tomon bundan keyingi bosqinchilik uchun zamin hozirlash mumkin, degan xulosaga kelishdi. 1924-yilning boshlariga kelib, O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi masalasi

¹ Ҳайдарова С. Совет ҳукмронлиги даврида Ўзбекистонда давлат қурилиши ва бошқаруви: магистрлик дарражасини олиш учун тайёрланган дис. – Андижон, 2016. – Б. 6-7.



hal etib bo‘lingan edi. Sovet davridagi barcha tarixiy manbalarda 1924-yilgi milliy davlat chegaralanishi xalqlarning erkin irodasi va kommunistik partiyaning milliy siyosati tantanasi deb ko‘rsatilgan edi.

Yangi milliy davlat tuzilmalari bilan bog‘liq masalalarining muayyan yechimi Moskvadagi kabinetlarda hech kim bilan maslahatlashilmasdan hal etilgan. Moskva Siyosiy byuroga mintaqaning siyosiy va jamoat arboblaridan kelib tushgan takliflarning aksariyat qismini rad etdi. Ular orasida o‘zbek-tojik, qozoq-qirg‘iz va turkman etnomadaniy guruuhlarini birlashtiradigan uchta respublika tashkil etish, Buxoro va Xorazm respublikalarini saqlab qolish va boshqa takliflar ham bor edi. Biroq Kreml haqiqiy mustaqillik hech qachon bo‘lmaydi deb o‘ylagani uchun ham bu mavzu muhokamadan olib tashlandi.

1923-yil 25-sentyabrda RKP(b) MQning siyosiy byurosi, shu yilning 9- va 11-oktyabrdagi RKP(b) MQ O‘rtal Osiyoda milliy chegaralanish masalasini ko‘rib chiqib, bu masalani rasmiylashtirish haqida qaror chiqardi. Mazkur qaror SSSR MIQ tomonidan 1924-yil 14-oktyabrdagi tasdiqlandi².

Milliy chegaralanish natijalariga ko‘ra, O‘rtal Osiyoda O‘zbekiston va Turkmaniston Sovet Sotsialistik respublikalari, O‘zbekiston tarkibida Tojikiston avtonom respublikasi (1929-yilgacha), RSFSR tarkibida Qoraqirg‘iz (Qirg‘iziston) avtonom viloyati, Qozog‘iston ASSR va Qoraqalpog‘iston avtonom viloyati tashkil etildi.

1925-yil 13-fevralda esa Buxorodagi xalq uyida umumo‘zbek sovetlarining birinchi qurultoyi ochilib, unda “O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilganligi to‘g‘risida Deklaratsiya qabul qilindi. Qurultoyda O‘zbekiston SSR sovetlari MIQ raisi lavozimiga Yo‘ldosh Oxunboboyev, O‘zSSR hukumati – Xalq Komissarlari Kengashi raisi lavozimiga Fayzulla Xo‘jaev tayinlandi³.

Tashkil etilgan yangi O‘zbekiston SSRning poytaxti 1925-yil apreliga qadar Buxoro, 1925-yil apreldidan – 1930-yil oxirigacha Samarqand, 1930-yilning oxiridan esa Toshkent shahri deb belgilandi va Toshkentga ko‘chirildi.

1924-yilning 12-iyunida RKP (b) MK Siyosiy byurosi O‘rtal Osiyo respublikalari (Turkiston, Buxoro va Xorazm) ning milliy chegaralanishi to‘g‘risida qaror qabul qildi. Mana uning matni: “Buxoro va Turkiston Markaziy Komitetlari va Xalq komissarlari kengashlari takliflariga asosan:

a) Turkiston, Buxoro va Xorazmning turkmanlar yashaydigan qismlaridan mustaqil Turkmaniston respublikasi;

² Хайдарова С. Совет ҳукмронлиги даврида Ўзбекистонда давлат қурилиши ва бошқаруви... – Б. 7.

³ Ўзбекистоннинг янги тарихи: Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 298.



b) Buxoro va Turkistonning o‘zbeklar yashaydigan qismlaridan mustaqil O‘zbekiston respublikasi;

v) Xorazm respublikasi, turkmanlarni ajratib chiqargan holda, ilgarigi hududlarida qoldirilsin”. Turkistonning qozoqlar yashaydigan tumanlari birlashib, Qozog‘iston avtonom viloyati tarkibiga kirdi, tashkil etilgan Qirg‘iziston ASSR bevosita RSFSR tarkibiga kirdi, Tojikiston avtonom viloyati shu vaqtning o‘zida respublikaga aylantirildi (O‘zbekiston SSR tarkibida)⁴.

O‘rta Osiyo xalqlari taqdirini hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan bu hujjat xalqaro huquq nuqtai nazaridan noqonuniy edi. 1920-yilning 8-oktyabrida e`lon qilingan Buxoro xalq sovet respublikasi, 1924-yilning 19-sentyabr kuni Buxoro sotsialistik sovet respublikasiga aylantirildi. 1920-yilning 26-aprelida e`lon qilingan Xorazm xalq sovet respublikasi 1923-yilning 20-oktyabrida Xorazm sotsialistik sovet respublikasiga aylantirildi.

Biroq Buxoro va Xorazm respublikalari RSFSR tarkibiga ham, SSSR tarkibiga ham kirmas edi.

1925-yilning 19-fevral kuni Moskva Qozog‘iston ASSR tarkibida Qoraqalpog‘iston avtonom viloyati tashkil etishga qaror qiladi. 1930-yilning 20-iyul kuni viloyat RSFSR tarkibiga o‘tkaziladi, 1936-yilning dekabrida avtonom respublika sifatida O‘zbekiston tarkibiga kiritiladi.

1923-yilning 14-oktyabr kuni mamlakat hokimiyatining o‘sha vaqtdagi oliy organi – SSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi O‘rta Osiyodagi milliy davlatlar yangi til-etnik belgilariga ko‘ra tashkil etilgani to‘g‘risida qaror qabul qildi. Garchi ushbu hujjat Markaziy Ijroiya qo‘mitaning boshqa hujjatlari singari qonun kuchiga ega bo‘lsa-da, ular partiya qarorlarining nomigagina rasmiylashtirilishi edi.

Mintaqada tashkil etilajak davlatlarga qaysi etnoslar o‘z nomini berishi mumkinligi, ularning davlatchilik darajasi qanday bo‘lishi ishning bir qismigina edi. Eng qiyin muammo yangi, ilgari hech qachon mavjud bo‘lmagan davlat tuzilmalari o‘rtasida chegara o‘rnatish edi. Etnik tarqoqlik va ko‘chmanchi aholining chegaralari tez-tez o‘zgarib turishi muammoni yanada mushkullashtirardi. Masalan, Xo‘jandni Tojikiston tarkibiga qo‘shish ham shunday bahona bilan oqlangan edi. Toshkent atrofida ko‘plab qozoqlar yashashi asos qilinib, uni Qozog‘istonga berib yuborish masalasi juda faol muhokama qilingan edi⁵.

O‘z navbatida, g‘arblik tadqiqotchilarning ta`kidlashicha, Moskva 1924-yili kelgusida turli etnoslar o‘rtasidagi ziddiyatga poydevor hozirlagan edi.

⁴ Хайдарова С. Совет ҳукмронлиги даврида Ўзбекистонда давлат қурилиши ва бошқаруви... – Б. 7-8.

⁵ Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. – Т.: Ўзбекистон, 2001. – Б.11.



Turli ilmiy manbalarda O‘rta Osiyodagi milliy davlat chegaralanishi Kremlning zararsizlantirilmagan minasi, Kreml xaritanavislarning yovuz rejalarini deb tavsiflanadi: stalincha milliy siyosatning bolg‘asi o‘zi majaqlab tashlagan sivilizatsiya xarobalari o‘rnida yangi millatlarni yasadi.

O‘sha yillarda Moskva O‘zbekistonni Osiyodagi o‘ziga qaram kuch markazi deb bilardi. Bu g‘oyani 1925-yilning fevralida SSSR Markaziy ijroiya qo‘mitasining raisi M.Kalinin O‘zbekiston kompartiyasining Buxoroda bo‘lib o‘tgan birinchi qurultoyi delegatlariga qarata aytgan quyidagi so‘zlarida ifoda qilgan edi: “O‘zbekiston ulkan madaniy potentsial, texnik imkoniyatlar, Sharqning boy shaharlari va inson resurslariga ega bo‘lib, O‘rta Osiyoda katta, aytish mumkinki, gegemon rol o‘ynashi kerak...”⁶.

Biroq 20-yillarning oxiriga kelib, O‘rta Osiyoda siyosiy vaziyat o‘zgara boshladi. 1929-yili Tojikiston ittifoqdosh respublika bo‘ladi va O‘zbekistondan ajratildi. O‘zbekistondan Tojikistonga Xo‘jand shahri va u bilan birga 8 ming kv. km. hudud ajratib berildi. 1930-yilda O‘zbekiston poytaxtining Samarqanddan Toshkentga ko‘chirilishi ham Moskvaning ushbu siyosiy qarori bilan bog‘liq. Partiyaning o‘sha vaqtagi ba‘zi bir hujjatlarida bunday qaror qabul qilinishiga bosmachilik (“Istiqlolchilar harakati”)ga qarshi juda keskin kurash bilan bog‘liq muammolar sabab qilib ko‘rsatilgan.

Shu bilan birgalikda, bu o‘zgarish Fayzulla Xo‘jayev va Buxorodan chiqqan boshqa amaldorlar hokimiyat tepasida turgan vaqtida keragidan oshiqcha mustaqil ish ko‘ra boshlagani sababli O‘zbekistonning jilovini tortib qo‘yish uchun qilingan, deyishga asos bor. O‘sha paytda O‘zbekistonning siyosiy ufqida Toshkent guruhi vakillari A.Ikromov va U. Yusupovlar paydo bo‘lgan edi.

Ayrim olimlar, sovet hokimiyati o‘zbek va tojik millatlarini sun‘iy tarzda yasagan, degan fikrni bildirishadi. Ular hozirgi kunda o‘zbeklar haqida shakllanib bo‘lgan etnos deb ishonch bilan aytish mumkin, biroq ular xuddi shunday ishonch bilan sovet tojiklarini yagona millat deb atab bo‘lmaydi, deya hisoblashadi⁷.

1924-yili O‘rta Osiyoda amalga oshirilgan milliy-davlat chegaralanishi mintaqani bundan buyon sovetchasiga mustamlaka qilish borasida Moskva erishgan ulkan muvaffaqiyat bo‘lgan edi. Bu hol Kremlning yetti uxbab tushiga ham kirmagan tarixiy oqibatlarga olib keldi. O‘rta Osiyo sovet respublikalarida milliy siyosiy va madaniy elita shakllanishi, milliy ongning davlat vatanparvarligi saviyasi oshishi uchun shart-sharoit yaratildi.

⁶Калинин М. Танланган асарлар. 1-жилд. – М., 1960. – Б. 630.

⁷ Мирский Г. Ислам и нация: Ближний Восток и Центральная Азия. // Полис. – 1998. – №2. – С.81 – 82.



Moskvaning irodasi bilan tashkil topgan yarim davlatlar oradan 70 yil o'tib, aynan u – 1924-yili belgilab bergen chegaralarda mustaqil bo'lishdi.

1925-yil may oyida O'zbekiston SSSR tarkibiga kiritildi. SSSR Konstitutsiyasi, uning asosiy qonun-qoidalari O'zbekiston SSR hududida bevosita ishlaydigan bo'ldi. 1927-yilda qabul qilingan O'zbekiston SSRning bиринчи va 1937-yilda qabul qilingan ikkinchi Konstitutsiyasi ham amalda SSSR Konstitutsiyasining ko'chirma nusxasi edi. Chunki, O'zbekiston qog'ozdagи "suveren" respublika bo'lib, amalda Markazga tobe va qaram bir o'lka edi, xolos. U o'z xalqining milliy manfaatlariga oid biror-bir dolzarb, hayotiy ahamiyatga molik masalani Ittifoq hukumatidan xoli ravishda mustaqil hal eta olmasdi. Bunga uning haddi sig'masdi. Binobarin, respublikaning ichki va tashqi siyosatiga daxldor barcha masalalar faqat hukmron Markaz xohish-irodasi bilangina hal etilardi. Hatto O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishiga oid masalalar ham ittifoq hukumati tasarrufida edi. Masalan, O'zbekiston xalqi, uning hukumati roziligin so'ramasdan 1929-yilda Tojikiston ASSR O'zbekiston SSR tarkibidan chiqarilib, Tojikiston Sovet Sotsialistik Respublikasiga aylantirildi hamda SSSRga qabul qilindi⁸.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sovetlar O'rta Osiyo hududlarini mustaqil davlat barpo etish haqidagi g'oyalarini inkor etgan holda, Turkiston hududlarini mustamlaka tartibida saqlab turish hamda boshqarish jarayonini yanada osonlashtirish maqsadida yangi turlicha nomdagi davlatlarni tashkil etdi. Ushbu chegaralanish mahalliy millat vakillarining xohish-irodasi inobatga olinmasdan markaz tomonidan majburiy tarzda amalga oshirildi hamda bir nechta qarorlar ishlab chiqildi. Natijada tarixdan bir hududda yashab kelgan millatlar turli nomda ataluvchi davlatlarga bo'linishga majbur bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Калинин М. Танланган асарлар. 1-жилд. – М., 1960. – Б. 630.
2. Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. – Т.: Ўзбекистон, 2001. – Б.11.
3. Мирский Г. Ислам и нация: Ближний Восток и Центральная Азия. // Полис. – 1998. – №2. – С.81 – 82.
4. Ҳайдарова С. Совет ҳукмронлиги даврида Ўзбекистонда давлат қурилиши ва бошқаруви... – Б. 7-8.
5. Ўзбекистоннинг янги тарихи: Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 298.

⁸ Ўзбекистоннинг янги тарихи: Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 297-298.